



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 76-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI..... 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Farsaxonova Mastura Jalol qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Tel: +998 99 597 30 08

Email: farsaxonovamastura@gmail.com

Orcid iD: 0009-0009-9033-8120

Annotatsiya. Maqolada o'qish savodxonligi darslarida O'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo'shiqlari orqali o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini — kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiyani rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarini darslarga integratsiya qilish o'quvchilarda ijodkorlik va hamkorlikni oshiradi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ertak, rivoyat, bolalar qo'shig'i, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya.

DEVELOPING 4C SKILLS THROUGH UZBEK FOLK TALES, LEGENDS, AND CHILDREN'S SONGS IN READING LITERACY LESSONS

Farsaxonova Mastura Jalol qizi

Jizzakh State Pedagogical University Master's Student, 2nd Year

Specialty: Theory and Methodology of Education and Upbringing (Primary Education)

Annotation. The article analyzes the development of 4C skills — creativity, critical thinking, communication, and collaboration — through Uzbek folk tales, legends, and children's songs in reading literacy lessons. Integrating folklore into lessons enhances students' creativity, cooperation, and cultural awareness.

Keywords: folk oral creativity, fairy tale, legend, children's song, reading literacy, creativity, critical thinking, communication, collaboration.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish hamda jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslari o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalaridan — ertaklar, rivoyatlar, topishmoqlar va bolalar qo'shiqlaridan foydalanish nafaqat o'quvchining nutqiy, balki ma'naviy-intellektual rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy 4K konsepsiyasi (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya) bilan uyg'unlashtirish o'qish savodxonligi darslarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yondashuv o'quvchilarda o'z fikrini asoslab aytish, ijodkorona yechim topish, fikr almashish va jamoada ishlash malakalarini shakllantirish orqali ta'lim jarayonini faollashtiradi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlar singdirilib, ularning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissi mustahkamlanadi.

Shunday ekan, o'qish savodxonligi darslarida O'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo'shiqlaridan foydalanish orqali 4K ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida o'qish savodxonligi darslari jarayonida O'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo'shiqlari asosida 4K ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llarini aniqlash, ularning o'quv va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarda 21-asr kompetensiyalarini, xususan, 4K ko'nikmalarini (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) rivojlantirish global pedagogik tendensiyaga aylangan. UNESCO (2021) ta'kidlaganidek, 4K ko'nikmalari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur omildir.

Amerikalik olimlar Trilling va Fadel (2009) o'zlarining "21st Century Skills" asarida 4K konsepsiyasini ta'limning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etib, aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini ta'kidlashadi. Ularning fikricha, kreativlik – muammolarni noodatiy yechish qobiliyati, tanqidiy fikrlash – axborotni tahlil qilish va xulosaga kelish jarayoni, kommunikatsiya – o'z fikrini aniq ifodalash, kollaboratsiya esa – jamoada samarali ishlash malakasidir [1, 2009].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga e'tibor kuchaygan. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" (2021)da o'qish savodxonligi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, matndan asosli xulosa chiqarishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalish sifatida belgilanadi [2, 48-b.].

Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qish darslariga integratsiya qilish o'quvchilarda nafaqat bilim, balki kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

M. Qurbonova (2020) o'z tadqiqotida O'zbek xalq ertaklari o'quvchilarning axloqiy va estetik dunyoqarashini kengaytirishini, ularning so'z boyligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, Z. Tursunova (2022) tomonidan o'tkazilgan amaliy tadqiqotlarda rivoyatlar asosida tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarda tahliliy fikrlash va muloqotga kirishish malakasini mustahkamlayotgani ta'kidlanadi.

Bolalar qo'shiqlari esa, N. Xolboyeva (2021) fikriga ko'ra, o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ritmik ifoda orqali hissiy idrok va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. Qo'shiqlarning she'riy shakli bolalarning so'z boyligini tabiiy ravishda kengaytiradi hamda ularda estetik didni shakllantiradi [3, 240-b.].

Xalq og'zaki ijodi namunalarining o'qish savodxonligi darslaridagi o'rni haqida xorijiy tajribalarda ham e'tirof etiladi. Masalan, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida milliy folklor matnlaridan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatilgan (OECD, 2020).

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi elementlarini o'qish savodxonligi darslariga kiritish 4K ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarni faollikka, tahlilga, ijodkorlikka va jamoaviy o'zaro hurmat asosida fikr almashishga undaydi.

Metodologiya (Methods)

Tadqiqot jarayoni 4-sinf o'qish savodxonligi darslarida O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish asosida o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini shakllantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Maqsadga erishish uchun kuzatish, tahlil, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov va metodik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ob'ekti – 4-sinf o'qish savodxonligi darslari jarayoni.

Predmeti – O'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo'shiqlari asosida 4K (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.

Tadqiqot usullari

- Pedagogik kuzatish – o'quvchilarning o'qish darslaridagi faolligi, muloqotga kirishish, ijodiy fikrlash va hamkorlikdagi ishtiroki o'rganiladi.
- Suhbat va so'rovnoma – o'qituvchilar bilan xalq og'zaki ijodini qo'llash tajribasi va 4K metodlariga munosabati aniqlangan.
- Tajriba-sinov ishlari – xalq ertaklari asosida tuzilgan 4K topshiriqlar (ijodiy yozish, muhokama, jamoaviy tahlil) dars jarayonida sinovdan o'tkaziladi.
- Tahlil va statistik baholash – tajriba natijalari foizli tahlil orqali o'quvchilarning 4K ko'nikmalari rivojlanish dinamikasi aniqlanib, ilmiy xulosalar chiqariladi.

Ushbu yondashuv xalq og'zaki ijodi materiallarini 4K kompetensiyalari bilan integratsiya qilishga, dars jarayonini interfaol, ijodiy va milliy qadriyatlarga asoslangan shaklda tashkil etishga imkon berdi.

Do'stlikda gap ko'p ekan

(O'zbek xalq ertagi)

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bir joyda bechora oq Qog'oz bor ekan. Qog'ozvoy bir joyda yotib-yotib judayam zerikibdi-da, qishlog'idan bosh olib chiqib ketibdi. U yo'l yuribdi, osmonda uchibdi, suvda suzibdi.

Bir kuni yo'lda ketayotsa, qarshisidan Kesakvoy chiqib qolibdi. Shunda Kesakvoyning qovog'idan qor, yuzidan do'l yog'ayotganini ko'rib, Qog'ozvoyning unga rahmi kelib gap boshlabdi:

- Assalomu alaykum, Kesakvoy.
- Vaalaykum assalom, – deb zo'rg'a alik olibdi Kesakvoy.
- Qani, Kesakvoy, yo'l bo'lsin, juda ham xafa ko'rinasan? – so'rabdi Qog'ozvoy.
- Bir joyda yolg'iz yotaverib juda zerikib ketdim. O'zinga do'st-birodar axtarib ketyapman, – debdi Kesakvoy.

– Unday bo'lsa, sen izlagan kishi biz bo'larkanmiz. Men ham bir joyda yolg'iz yotaverib zerikib, o'zinga sodiq oshna axtarib yuribman! – debdi Qog'ozvoy.

– Unday bo'lsa, kel, do'st bo'laylik, – debdi Kesakvoy. Qog'ozvoy jon deb rozi bo'libdi. Shunday qilib ikkovlon – Qog'ozvoy bilan Kesakvoy ajralmas do'st-birodar bo'lishibdi.

Kunlardan bir kuni qattiq shamol turibdi. Shunda Qog'ozvoy juda qo'rqib ketibdi-da, Kesakvoyga:

– Voy, do'stim Kesakvoy, chatoq bo'lyapti-ku?! Ana endi, bizning do'stligimiz buziladigan bo'ldi. Shamol bobo qahr bilan kelib, meni sendan ayirib olib ketadi, – debdi qattiq qayg'urib.

– Men bor ekanman, bunday bo'lishi mumkin emas. Men bunga yo'l qo'ymayman, – debdi Kesakvoy. Keyin Qog'ozvoyning ustiga chiqib uzala tushib yotib olibdi-da, do'stini Shamol bobo olib ketishidan saqlab qolibdi.

Ikkovlari xursand bo'lib turishgan ekan, osmonga Bulut bobo chiqib olibdi. Hamma yoqni qorong'ilik bosib, bir payt sharros yomg'ir quyib beribdi. Kesakvoy do'sti Qog'ozvoyga qarab:

– Ey do'stim Qog'ozvoy, ana endi mendek do'stingdan ajraladigan bo'lding. Mana shu yomg'ir meni birpasda eritib selga qo'shib olib ketadi-da, sendan ajratib, do'stligimizga chang soladi, – debdi.

Shunda Qog'ozvoy do'stiga qarab:

– Unday deb g'amga berilma, oshna. Mendek do'sting bor ekan, bunga yo'l qo'ymayman. Men seni o'rab olib, seni yomg'irning qahr-g'azabidan saqlab qolaman... – debdi[4, 22-25-b.].

“Do'stlikda gap ko'p ekan” ertagi asosida 4K ko'nikmalarini shakllantirish topshiriqlari

1. Kreativ fikrlash (ijodkorlik)ni rivojlantirish topshiriqlari:

- O'quvchilarga ertak yakunini o'zgacha tarzda davom ettirish topshirig'i beriladi:

“Agar shamol yoki yomg'ir yana qaytib kelsa, Qog'ozvoy va Kesakvoy qanday yo'l bilan bir-birini himoya qilgan bo'lardi?”

- “Do'stlik ramzi” nomli ijodiy rasm chizish topshirig'i: har bir o'quvchi do'stlikni o'z tasavvurida aks ettiradi.

- “Ertakni zamonaviylashtir” mashqi: o'quvchi ertak voqeasini hozirgi hayotdagi holatlar bilan bog'lab yozadi (masalan, sinfdosh do'stlar o'rtasidagi sadoqat haqida qisqa hikoya yozish).

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish topshiriqlari:

- “Qaysi qahramonning harakati sizga to'g'ri, qaysinisi noto'g'ri tuyuldi? Nega?” savoli asosida fikr bildirish.

- “Agar men Qog'ozvoy o'rnida bo'lganimda...” yoki “Agar men Kesakvoy bo'lganimda...” deb boshlanadigan argumentli yozma javob yozish.

- “Do'stlik sinovdan o'tadimi?” degan savol atrofida bahs-munozara tashkil etish.

3. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish topshiriqlari:

- “Rolga kirib o'yna” metodi: o'quvchilar ertak qahramonlari rolida chiqish qilib, dialoglarni o'z so'zlari bilan ifodalaydilar.

- “Do'stlar suhbat” mashqi: o'quvchilar kichik guruhlarda ertakdagi holatga o'xshash hayotiy vaziyatlarni muhokama qiladilar.

- Har bir o'quvchi o'z do'stiga murojaat shaklida minnatdorlik maktubi yozadi (“Rahmat, do'stim...”).

4. Kollaborativ (hamkorlikda ishlash) ko'nikmalarini rivojlantirish topshiriqlari:

- Guruhli loyiha: “Do'stlik daraxti” nomli plakat tayyorlanadi — har bir yaproqqa do'stlikni ifodalovchi sifat yoziladi (sodiqlik, mehr, sabr, yordam...).

- “Ertakni jonlantiramiz” mashqi: o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, ertakni sahna ko'rinishi sifatida ijro etadilar.

- “Do'stlik qo'llanmasi” loyihasi: har bir guruh o'z do'stlik qoidalarini yozib, sinfda namoyish etadi.

Kutilayotgan natija:

Bu topshiriqlar orqali o'quvchilar o'qilgan matnni anglash bilan bir qatorda o'z fikrini mustaqil bayon etishga, do'stlik, hamkorlik, sadoqat kabi ijobiy fazilatlarini hayotiy misollar

orqali tushunishga o'rganadilar. Shu bilan birga, ularda 4K kompetensiyalarining har biri — kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik izchil rivojlanadi.

Yerga chizilgan rasm

(Rivoyat)

Sulton Husayn Boyqaro navkarlari bilan ovga yo'l olibdi. Hirot shahridan chiqib, sayhonlikdan o'tib ketayotganlarida oldindagi qo'riqchi navkarlar nogoh to'xtab qolishibdi. Ulardan biri yerga ishora qilib debdi:

- Oliyhzrat, bu suratni qarang! Podshoh ot surib kelib, navkar ko'rsatgan joyga qarabdi. U yerda pahlavon Rustami dostonning surati aks ettirilgan edi. Hamma suratga tikilib qolibdi.

- Qanday nazokat ila chizilgan bu surat! Musavvirni topmoq kerak, - debdi Husayn Boyqaro.

Ovga chiqqanlar orasida Kamoliddin Behzodning ustoz Mavlono Mirak Naqqosh ham bor ekan.

- Oliyhzrat, - debdi u podshohga ta'zim qilib, - fikrimcha, bu suratni o'n ikki yoshli Kamoliddin Behzod chizgan ko'rinadi. Undan boshqa biror mo'yqalam sohibi bu kabi chizolmaydi.

- Kamoliddin Behzod... iste'dodli yigit ekan.

- Yaqinda Alisher Navoiy bu yigitchaning mashqlaridan ko'p mamnun bo'lib, o'z suhbatiga chaqirdi. Menga odam jo'natib, Kamoliddin Behzodni o'z kutubxonasiga xizmatga olishni bildirdi, - dedi Mirak Naqqosh Alisher Navoiyga minnatdor boqib.

- Do'stim, xayrli ish qilibsiz. Saltanatimizda bu yosh iste'dod sohibi ulug' bir musavvir bo'lib kamol topgay, - dedi Husayn Boyqaro do'sti Alisherbekka.

Saroy ahli yerga chizilgan suratni aylanib o'tib, yo'lga tushdilar [5, 4-6 b.].

4K ko'nikmalarini rivojlantirish topshiriqlari

1. Kreativ fikrlashni rivojlantirish topshiriqlari

- "Tasavvur et va davom ettir":

O'quvchilarga quyidagi savol beriladi:

"Agar siz Kamoliddin Behzod o'rnida bo'lsangiz, yana qanday surat chizardingiz? Nega aynan shunday?"

Bu mashq o'quvchilarning ijodiy tasavvurini kengaytiradi va estetik didni rivojlantiradi.

• "Mening orzumdagı surat" mavzusida rasm chizish: har bir o'quvchi o'z tasavvuridagi san'at asarini yaratadi va qisqacha izoh beradi.

• Rol o'ynash: o'quvchilar Behzod, Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlarini jonlantirib, ularning suhbatini zamonaviy tilda qayta ijro etadilar.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish topshiriqlari

• "Nega Husayn Boyqaro suratni ko'rib to'xtab qoldi?" yoki "Mirak Naqqoshning fikriga siz qo'shilasizmi?" kabi savollar asosida tahliliy fikr yuritish.

• O'quvchilar matndan iqtibos keltirib, Behzodning iste'dodini isbotlovchi dalillarni topadilar.

• "Iste'dod – tug'ma yoki mehnat bilan orttiriladimi?" degan savol atrofida mini-debata (kichik bahs) tashkil etish.

3. Kommunikativ (muloqot) ko'nikmalarini rivojlantirish topshiriqlari

- Guruhli muhokama: “San’at va iste’dod inson hayotida qanday o’rin tutadi?” mavzusida suhbat o’tkazish.

- “San’atkorlar suhbatida” rolli mashq: o’quvchilar Kamoliddin Behzod, Navoiy va Husayn Boyqaro ishtirokida sahna suhbatini tuzadilar.

- Juftlikda ishlash: o’quvchilar sherigi bilan bir-biriga savol beradi — biri savol tuzadi, ikkinchisi javob beradi.

4. Kollaborativ (hamkorlikda ishlash) ko’nikmalarini rivojlantirish topshiriqlari

- Guruhli loyiha: “Behzod izdoshlari” nomli plakat tayyorlanadi — unda Behzod, Navoiy va Husayn Boyqaro o’rtasidagi do’stlik, qo’llab-quvvatlash g’oyalari aks ettiriladi.

- “Surat orqasidagi hikoya” mashqi: har bir guruh Behzod chizgan surat haqida o’z fantaziyasiga asoslanib yangi voqeani yozadi.

- “Ijodiy kutubxona” loyihasi: har bir o’quvchi o’zining san’at haqidagi kichik yozma ishini sinf devoriy gazetasiga joylashtiradi.

Kutilayotgan natija. Bu topshiriqlar orqali o’quvchilar:

- o’qilgan matndan g’oya va ma’no chiqarishni,
- fikrini dalillar bilan asoslashni,
- muloqotda faol bo’lishni,
- hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritishni o’rganadilar.

Natijada o’quvchilarda kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, kommunikatsion muloqot va kollaborativ hamkorlik kabi 4K kompetensiyalar bir vaqtning o’zida shakllanadi.

Kulcha (bolalar qo’shig’i)

Non yopganda, non yopganda,
Mening oyim, mening oyim.

Issiq kulcha, issiq kulcha,
Yopar doim, yopar doim.

Kulcha juda mazzali,
Sedanali, jizzali.

Yegan sari yegim kelar,
Rahmat oyi, degim kelar.

Yegan sari yegim kelar,
Rahmat oyi, degim kelar [6].

4K ko’nikmalari asosida topshiriqlar

1. Tanqidiy fikrlash (Critical thinking)

- Oyim non yopayotganda bolaga qanday hissiyotlar yetib kelgan deb o’ylaysiz?
- “Rahmat oyi” degan so’z bilan muallif nima demoqchi?

2. Ijodkorlik (Creativity)

- Agar siz shoir bo’lsangiz, “Non yopganda” she’riga yana bir yangi band qo’shing.
- Non yopish jarayonini rasm orqali ifodalang.

3. Hamkorlik (Collaboration)

- Guruh bilan “Non yopish bayrami”ni sahnalashtiring. Har kim bir rolni o‘ynasin (oyi, bola, tandirchi va hokazo).

- Sinf bilan “Non – hayot manbai” devoriy gazetasini yarating.

4. Kommunikativ ko‘nikma (Communication)

- She‘rni ifodali o‘qing, ohangni tanlang.

- She‘r mazmunini o‘zingizning so‘zlaringiz bilan aytib bering.

Kutilayotgan natijalar va muhokama (Expected Results and Discussion)

Ushbu tadqiqotda o‘qish savodxonligi darslarida O‘zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo‘shiqlari asosida o‘quvchilarda 4K – kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya – ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuv sinovdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotning amaliy bosqichida 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib boriladi.

1. Dastlabki taxmin (prognoz)

Kutilishicha, xalq og‘zaki ijodi asosidagi o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarda:

- ijodiy fikrlashni (ertak va rivoyatlardagi voqealarni yangicha talqin qilish orqali),
- tanqidiy tahlilni (qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash orqali),
- nutqiy muloqotni (sahnalashtirish, bahs va savol-javob faoliyati orqali),
- hamkorlik madaniyatini (guruhda ishlash, birgalikda xulosa chiqarish orqali) rivojlantiradi deb taxmin qilinmoqda.

Shuningdek, o‘quvchilar dars jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan ijobiy axloqiy sifatlarni — halollik, adolat, mehr-oqibat va sabr kabi fazilatlarni o‘zlashtiradilar.

2. Metodik yondashuvning samaradorligi bo‘yicha prognoz

Kutilayotgan natijalarga ko‘ra, tajriba yakunida:

- kreativlik darajasi o‘quvchilarning 30–40% da sezilarli o‘sish ko‘rsatadi,
- tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari 35–45% gacha oshadi,
- kommunikativ faoliyat darslarda 80% o‘quvchini faollikka jalb etadi,
- kollaborativ ko‘nikmalar esa jamoaviy topshiriqlar orqali mustahkamlanadi.

Bunda o‘qituvchining roli o‘quvchini faqat matnni o‘qishga emas, balki unda ma‘no izlash, savol qo‘yish va yechim topish faoliyatiga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

3. Kutilayotgan ilmiy-amaliy ahamiyat

Tadqiqot yakunida ishlab chiqiladigan metodik tavsiyalar:

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun 4K yondashuv asosida o‘qish savodxonligi darslarini rejalashtirishga,

- o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga tayangan tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga,

- o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida innovatsion dars modellarini joriy etishga asos bo‘la oladi.

Prognoz natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo‘shiqlari o‘quvchilarning nafaqat savodxonlik darajasini, balki ularning tafakkur, muloqot va ijtimoiy faolligini ham sezilarli darajada rivojlantiradi[7,45-49b.].

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qish savodxonligi darslarida O‘zbek xalq ertaklari, rivoyatlari va bolalar qo‘shiqlaridan samarali foydalanish o‘quvchilarda 4K —

kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya — ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy og'zaki ijod namunalarida mujassam bo'lgan g'oya, obraz va qadriyatlar o'quvchilarning nafaqat o'qish savodxonligini, balki ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Ertak, rivoyat va bolalar qo'shiqlari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar voqealarni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammoga ijodiy yondashish hamda o'z fikrini asoslab ifodalashga o'rganadilar.

Prognoz natijalar shuni ko'rsatadiki:

- Kreativlik ko'nikmasi ertak va rivoyatlardagi holatlarni qayta talqin qilish orqali shakllanadi;
- Tanqidiy fikrlash qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil etish jarayonida rivojlanadi;
- Kommunikatsiya muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, sahnalashtirish va munozara orqali mustahkamlanadi;
- Kollaboratsiya esa jamoaviy ijodiy faoliyat (ertakni davom ettirish, maqol devori yaratish, guruhli taqdimotlar) orqali faollashadi.

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, o'quvchi matndan tashqariga chiqib, o'zining hayotiy tajribasi, his-tuyg'usi va tafakkurini o'qilgan asar bilan bog'lay oladi. Bu esa o'qish savodxonligini shakllantirishning zamonaviy kompetensiyaviy modeliga to'liq mos keladi.

Tavsiyalar:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish savodxonligi darslarini rejalashtirishda xalq og'zaki ijodi namunalarini 4K yondashuvi asosida integratsiyalash tavsiya etiladi.
2. Ertak, rivoyat va bolalar qo'shiqlari asosida tuzilgan topshiriqlar ijodiy, tanqidiy va hamkorlikka yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
3. Darslarda guruhli ish, rolik tayyorlash, sahnalashtirish kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi.
4. O'qituvchilar uchun "Milliy qadriyatlarga asoslangan 4K topshiriqlar banki"ni yaratish va uni metodik qo'llanma sifatida amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.
5. Ushbu yo'nalishdagi tajriba ishlari natijalari asosida o'qish savodxonligini baholash mezonlariga 4K indikatorlarini kiritish taklif etiladi.

Xulosa sifatida, xalq og'zaki ijodi namunalariga asoslangan o'qish savodxonligi darslari nafaqat o'quvchilarning nutqiy va tafakkur salohiyatini, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va estetik qadriyatlarini ham mustahkamlaydi. Bu esa 4K kompetensiyalarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishning samarali usulidir.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. — San Francisco: Jossey-Bass, 2009.
2. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti (DTS). – Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi, 2021. – 48 b.
3. Xodjayev N. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 240 b.
4. Aydarova U., Azizova N. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. II qism. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 22-25 b.
5. Aydarova U., Azizova N. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. IV qism. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 4-6 b.
6. <https://ertak.uz/songs>

7. Husainova M. Boshlang'ich ta'limda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari // Ta'lim taraqqiyoti jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45–49.

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com